

“CHOLG‘U IJROCHILIGI” FANINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Qahramon Boboqulov,

Jizzax Davlat pedagogika instituti
Musika ta’limi kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Cholg‘u ijrochiligi” fanini samarali va sifatli tashkil etilishini ta’min etuvchi faoliyatni yo‘lga qo‘yilish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, ta’lim tizimi, cholg‘u, cholg‘u ijrochiligi, madaniyat, madaniy taraqqiyot, musiqa, musiqiy ta’lim, texnologiya, san’at.

Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o‘z navbatida ta’lim tizimini, xususan “Cholg‘u ijrochiligi” fanini samarali va sifatli tashkil etilishini ta’min etuvchi faoliyatni yo‘lga qo‘yilishini taqoza etadi. Madaniy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlik kasb etuvchi, unga yangicha mazmun baxsh etuvchi musiqiy ta’lim faoliyati bugungi kunning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

“Texnologiya” - yunoncha so‘z bo‘lib “techne” “mahorat”, “san’at” va “logos” “tushuncha” demakdir. Texnologiya so‘zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari xaqidagi bilimlar yig‘indisi, shuningdek, ob’ektda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlar tushuniladi. Ta’lim texnologiyalari tushunchasi ta’lim usullari tushunchasi singari kengdir. Cholg‘u ijrochiligi fani texnologiyalari – cholg‘u ijrochiligi ta’limi maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonining yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqishni ifodalaydi.

Xullas, cholg‘u ijrochiligi fani texnologiyalari – musiqiy ta’lim usuli, ma’lum ma’noda tahliliy jarayonlari vositalari, shakl va metodlari majmui. Cholg‘u ijrochiligi fani materiallarini tanlash, qayta ishlab buyurtmachi

sub'ektlarning kuchiga, xususiyatlariga moslab mazmuni, shakli va hajmini aniqlashtirish ham cholg'u ijrochiligi fani texnologiyasiga daxldordir. Cholg'u ijrochiligi fani texnologiyalari musiqiy ta'limning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida tahlil jarayonlari, fan mazmunini, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Madaniy jarayonlarning tezlashuvi cholg'u ijrochiligi fani jarayonlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlarni loyihalashga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Cholg'u ijrochiligi faniga texnologik yondashuv mazkur jarayonni aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan ta'lim maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi.

Cholg'u ijrochiligi fanini olib borish texnologiyalari ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijalarga erishishni ta'minlovchi ta'lim jarayonning barcha bosqich, qismlari va vazifalari aniq belgilangan tizimdir. U musiqa o'qituvchisi va talaba o'rtasida turli uslub va texnologiyalardan tashkil topgan pedagogik muloqot asosida tashkil etiladi

“Cholg'u ijrochiligi” darslarini olib borish texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, bu fanni olib borishga puxta loyiha ishlab chiqish va uni o'tkazish va yakuniga yetkazish jarayoniga katta turtki beradi. Nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan cholg'u ijrochiligi fanini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, nazariy asoslarga ega bo'lmasdan, ta'limga xos jarayonlarni olib borish mumkin emas.

Cholg'u ijrochiligi fanida “texnologiya” deganda fanning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o'zaro bog'liq muolaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi. Bunda muolaja sifatida jamuljam harakatlar qabul qilinadi, u yordamida bosh jarayon (yoki uning alohida bosqichi) bajariladi, buning natijasida masalalarning bevosita amaliy yechimi topiladi.

Cholg'u ijrochiligi fani texnologiyasi (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

1. Musiqa darsi jarayonini o'zaro bog'liq bosqichlarda tavsiflash

2. Musiqiy ijro natijaga erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish

3. Qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan musiqiy sohaga oid texnologik amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Cholg'u ijrochiligi fani texnologiyalari tizimli ravishda mantiqiy asoslangan cholg'u ijrochiligi fani jarayonini amalga oshiruvchi va yuqori darajada samaradorlik, ishchanlik, kafolatga ega natijalarga molik ijrochilik fani faoliyatidir.

Texnologiyalarni qo'llash cholg'u ijrochiligi (tanbur) fani da quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- cholg'u ijrochiligi fani maqsadining aniqligi va jarayonni tashkil etish mumkinligi;
- tavsiya etilayotgan mavzularga oid nazariy va amaliy bilimlar, ularni o'qitish usulining tizimli tarzda taqdim etilishi;
- cholg'u ijrochiligi fani mazmunining ketma-ketlikka, mantiqiylikka va boqichma-bosqichlilikka asoslanganligi;
- cholg'u ijrochiligi fanida pedagog faoliyatini samarali ta'minlanishi, bu jarayonda ularning kasbiy funksiyalarini aniq namoyon bo'lishi va h.

Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida ham o'qituvchi ham o'qituvchini o'z ustida ishlashga qiziqtiruvchi, harakatini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi texnologiyalardan biri o'yinli texnologiyalar hisoblanadi. S.A.Shmakov fikricha "o'yinli texnologiyalar nafaqat natijaga erishish, balki xoxishga ko'ra faoliyat jarayonining o'zidan zavqlanish uchun qo'llaniladi"¹.

Cholg'u ijrochiligi fani va ta'lim texnologiyalari nazariyasi va amaliyotida texnologiyalarga yondashuv fanlararo bog'liqlikni talab etadi. Ayniqsa, o'zbek tili va adabiyoti, tarix, etnografiya va falsafa fanlarining har birida cholg'u ijrochiligi fani uslublarining ayrim nazariy jihatlar bilan bog'liqligi ko'zga tashlanadi.

T.Salomonovanning fikricha, «Xalqlar madaniyati esa uning yashash tarzi, turmushi va kundalik hayotini aks ettiradi. Xalqlar yashash tarzi, turmushi va

¹ www.Letopisi.Ru

kundalik hayoti ma'lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, xuddi shunday bosqichlarni xalqlar madaniyati, jumladan musiqa madaniyati ham bosib o'tgan. Mana shu jihatdan ham tarix va musiqiy fanlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir»².

O'quvchilarga musiqa fanini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borish muhim ahamiyatga ega ekanligini dars olib borishda suhbat, hikoya metodlaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Darsda fanlarni bir-biriga bog'liq xolda bolalarga tushuncha berishdan ko'zlangan maqsad, avvalo shu mavzuning mazmunini o'quvchilar tushunib yetishini osonlashtirish, ularga berilayotgan tushunchalar ko'lamini kengaytirish, qolaversa musiqa o'qituvchisining ham bilim doirasi kengayishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Omonov, X. (2020). Musiqiy talim jarayoni Keys Stady metodidan foydalanish afzalliklariga oid ayrim mulohazalar: Musiqiy talim jarayoni Keys Stady metodidan foydalanish afzalliklariga oid ayrim mulohazalar. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(87). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7096

Xolbekov, M. (2021). YOSHLARNI HAYOTGA TAYYORLASHDA MUSIQANING O'RNI. *Журнал музыки и искусства*, 2(1). извлечено от <https://history.jspi.uz/index.php/art/article/view/3170>

Xolbekov, M. (2021). Ta'limda samaradorlikni oshirishda mavzuli konsertlarning o'rni. *Журнал музыки и искусства*, 2(1). извлечено от <https://history.jspi.uz/index.php/art/article/view/3158>

Boychaeva N.A, Abilov M.N, & Xolbekov M.A. (2021). THE IMPORTANCE OF ARIAS AND DUETS IN PERFORMANCE IN MUSICAL DRAMA CREATED IN HISTORICAL PROCESSES. *Archive of Conferences*, 18(1), 21-25. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/988>

Abdukarimova, E. I. (2021). The content of activities aimed at methodological improvement of the process of mastering classical works in the educational process. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (100), 416-419. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-100-78> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.08.100.78>

Abdukarimova, E. (2020). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVZULI KONSERTLARNING AHAMIYATI. *Журнал музыки и искусства*, 1(1). извлечено от

2. T.E.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. –T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 1981-yil. –b 34.